



ENERGETIKA VA ELEKTROTEXNIKA

UDK 621.32

DUNYO MINTAQALARI VA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING 2030 YILGA-CHA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARIGA BO'LGAN YO'L XARITASI

Bekishev Allabergen Yergashevich,
dotsent v.b., PhD

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
Email: bekishev.allabergan@tdtu.uz

Saodullayev Abror Saypullayevich
katta o'qituvchi
Jizzax Politeknika instituti
Email: saodullaev@gmail.com

Ushbu maqolada Dunyo mintaqalarida va O'zbekiston Respublikasida shamol energiyasidan foydalanishning hozirgi holati va kelajak istiqbollari to'g'risida, halqaro IRENA (International Renewable Energy Agency) tashkiloti hamda O'zbekiston Respublikasi Qonunlari va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmon va qarorlari asosida tahliliy ma'lumotlar keltirilgan. Bu yerda 2030 yilgacha xalqaro miqyosda dunyoning global 1,50S ga isishiga qarshi kurashish uchun 2030 yilgacha bajarilishi kerak bo'lgan ishlar hamda bu boroda O'zbekiston Respublikasining 2026 yilga qadar qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushini 25 foizga yetkazish masalalari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: global iqlim o'zgarishi, qayta tiklanuvchi energiya manbaalari, global hamkorlik, geopolitika, xalqarro hamkorlik, sarmoya kiritish, global harorat ortishining oldini olish, yashil iqtisodiyot, tabiiy yoqilg'ilarni tejash

В статье представлен аналитический обзор современного состояния и перспектив использования ветроэнергетики в регионах мира и в Республике Узбекистан на основе данных международной организации IRENA (Международное агентство по возобновляемым источникам энергии), Законодательства Республики Узбекистан. , а также указы и постановления Президента Республики Узбекистан. 'информация предоставляется. Здесь были рассмотрены работы, которые необходимо провести к 2030 году для борьбы с глобальным потеплением на 1,50°C, а также вопросы увеличения доли возобновляемых источников энергии в Республике Узбекистан до 25% к 2026 году.

Ключевые слова: глобальное изменение климата, возобновляемые источники энергии, глобальное сотрудничество, geopolитика, международное сотрудничество, инвестиции, предотвращение глобального потепления, зеленая экономика, экономия природного топлива

In this article, the current situation and future prospects of the use of wind energy in the regions of the world and in the Republic of Uzbekistan are analyzed based on the international organization IRENA (International Renewable Energy Agency) and the Laws of the Republic of Uzbekistan and decrees and decisions of the President of the Republic of Uzbekistan. data is provided. Here, the work to be done until 2030 to combat the global warming of 1.50C at the international level and the issues of increasing the share of renewable energy sources of the Republic of Uzbekistan to 25% by 2026 are discussed here.

Key words: global climate change, renewable energy sources, global cooperation, geopolitics, international cooperation, investment, prevention of global warming, green economy, saving natural fuels.

Kirish

Qayta tiklanadigan energiya, Parij kelishuviga muvofiq global atmosfera haroratning sanoat darajasi $1,5^{\circ}\text{C}$ dan oshishiga chegara qo'yish va Barqaror Rivojlanish Maqsadlariga erishishda muhim ahamiyatga ega. Uning hayotiy rolini Buyuk Britaniyadagi COP28 iqlim anjumanida tasdiqlandi, bu tarixiy voqeа bo'lib, ishtirok etgan taraflar global iqlim muzokalaralarida yangi davrga qadam qo'yib, qayta tiklanadigan energiya maqsadiga qo'l urdilar.

Birinchi Juhon Hisoboti natijalari tarixiy BAA (Birlashgan Arab Amirliklari) konsensusiga olib keldi, bu global energiya tizimining kelajagini shakllantirish uchun aniq yo'l xaritasini taqdim etdi. Joriy zamondagidek qazib olinadigan yoqilg'ilarga bog'lanishdan chiqish, qayta tiklanadigan energiya quvvatini 2030 yilga qadar uch baravarga oshirish uchun darhol va aniq harakatlarni talab qiladi.

Matielllar va usullar

Qayta tiklanadigan energiya quvvatini uch baravarga oshirish maqsadi IRENA (International Renewable Energy Agency) tashkilotiga qaratilgan sa'y-harakatlarning muhim tasdig'idir. Bu tashkilotning asosiy nashri (World Energy Transitions Outlook-WETO) WETOda chop etilgan ma'lumotlardan kelib chiqadi. Ushbu hisobotda belgilangan $1,5^{\circ}\text{C}$ ssenariyga ko'ra, 2030 yilgacha jahon bo'yicha qayta tiklanadigan energiyani ishlab chiqarishni 11000 gegavatt (GW) yoki 11 terravatt (TW) ga oshirish uchun yil davomida 1000 gegavattdan ortiq energiya quvvati qo'shilishi nazarda tutilgan[1].

Quyidagi 1-jadvalda dunyo mamlakatlarining 2030-yilgacha qayta tiklanuvchi energiya sohasida erishilishi nazarda tutilgan yo'l xaritasi keltirilgan.

Ushbu yo'l xaritasida keltirilgan jahon majburiyatiga erishish uchun kuchaytirilgan siyosat choralari, sarmoyalarning oshirilishi va global hamkorlikni rivojlantirish talab etiladi. Bu, o'n yilning qolgan yillarida yer yuzida atmosferaning o'rtacha $1,5^{\circ}\text{C}$ sanoat darajasidan oshib ketmasligiga yo'naltirish va Barqaror Rivojlanish Maqsadlariga erishish uchun muhim ahamiyatga ega ekanligi ta'kidlangan.

IRENA tashkiloti, ishonchli agentlik sifatida, har yili maqsadga erishish uchun rivojlanishni ko'rib chiqish, xato va kamchiliklarni aniqlashga qat'iy ishonadi. Ushbu davom ettiriladigan baholash COP28 majburiyatini kuzatish va 2030 yil va undan keyingi davrga borish uchun harakatlarni davom ettirish muhim ahamiyatga ega.

2023 yilda qayd etilgan rekord darajadagi qayta tiklanadigan energiya manbaalarining o'sishiga qaramay, qayta tiklanuvchi energiyaga o'tish jarayoni uzlusiz, strukturaviy to'sqinliklar va sarmoyalalar kamliqi sababli o'z yo'nalishidan chetlashgan. Qayta tiklanadigan energiya quvvatini 2030 yilga qadar uch baravarga oshirish texnik jihatdan imkoniyatga ega va iqtisodiy jihatdan amalga oshirish mumkin, lekin uni amalga oshirish uchun qat'iyat, yashil iqtisodiy siyosatni qo'llab-quvvatlash va keng ko'lamdagi sarmoya kiritilishi talab etiladi.

COP28 natijalariga ko'ra 2030 yilga qadar qayta tiklanadigan energiya quvvatini uch baravarga oshirish 2023 yilda qayta tiklanadigan energiyaning jahon energiya miqdoriga 473 gegavatt (GW) qo'shilishi bilan yangi rekord o'matilganini ta'kidlaydi[1].

1-jadval

**Dunyoning 2030 yilga qadar qayta tiklanuvchi energiya manbalariga
bo‘lgan yo‘l xaritasi**

Qayta tiklanadigan energieiya manbalari		
2023 yil		2030 maqsadlari (1,5°C ssenariyi)
Qo‘sishimcha o‘rnatilgan qayta tiklanadigan energiya manbalari	Umumiyligi o‘rnatilgan qayta tiklanadigan energiya manbalari	
473 ГВт	3870 ГВт	11174 ГВт
Minimum o‘sish sur’ati		16,4 %
Qo‘sishimcha zarur bo‘lgan qayta tiklanadigan energiya quvvati		1044 ГВт
O‘rnatilgan quvvatda qayta tiklanadigan manbalar ulushi	43 %	77 %
Qayta tiklanadigan energiyaning ishlab chiqarishdagi ulushi	28%	68%
Yillik qo‘yosh energiya manbalari	346 ГВт/yil	578 ГВт/yil
Yillik shamol energiya manbalari	116 ГВт/yil	360 ГВт/yil
Yillik gidroeyenergiya energiya manbalari	7 ГВт/yil	28 ГВт/yil
Yillik bioenergiya energiya manbalari	4 ГВт/yil	28 ГВт/yil
Yillik geotermal energiya manbalari	0,2 ГВт/yil	13 ГВт/yil
Yillik dengiz to‘lqinlari energiya manbalari	0,0018 ГВт/yil	10 ГВт/yil
Elektr va ulanuvchi gibrif yengil avtomobililar zaxirasi	40 milion	360 milion
Elektroliz sig‘imi zaxirasi manbalari	2,9 ГВт/yil	428 ГВт/yil
Qayta tiklanadigan energiya ishlab chiqarishga investitsiyala	570 mlrd USD	1550 mlrd USD
Elektr tarmoqlari va moslashuvchanlik uchun investitsiya ehtiyojlari	368 mlrd USD	720 mlrd USD

Biroq, (IRENA)ning qisqacha xulosasiga ko‘ra, qayta tiklanadigan energiya quvvatini uch baravarga oshirish bu energiya turiga o‘tishining dunyo davlatlari tomonidan tizimli va tashkiliy to‘siqlarni yengishga bog‘liq.

Xalqaro siyosatning rivojlanishi, geopolitik o‘zgarishlar va narxlarning pasayishi jahon bo‘yicha qayta tiklanadigan energiya quvvatlarining tez o‘sishini rivojlantirishda muhim rol o‘ynadi. Lekin, qayta tiklanadigan energiya quvvatini uch baravarga oshirish uchun infratuzilmani, xalqaro iqtisodiy siyosatni va ishchi kuchini ko‘paytirish, sarmoyalarni oshirish va xalqaro hamkorlikni kuchaytirish uchun qo‘llaniladigan tashabbuslar kerak, buning

barchasi IRENAning Berlin Energiya Transformatsiyalari Dialogiga taqdim etilgan World Energy Transitions Outlook (WETO) xulosasida ta’kidlangan.


Quyidagi 1-rasmida dunyo mintaqalarining organik yoqilg‘ilardan foydalanmagan holda, ekologik zarar keltirmaydigan, qayta tiklanuvchi energiya manbaalaridan foydalangan holda enerhiya ishlab chiqarish natijalari keltirilgan. Rasmdan ko‘rish mumkinki, bunda suv, shamol va quyosh energiyasidan foydalanish yetakchilik qilmoqda. Bunga sabab oxirgi yillarda ushbu uchta soxaga nisbatan katta mablag‘lar yo‘naltirilmoqda.

Qayta tiklanadigan energiya ishlab chiqarishga sarmoyalar 2023 yildagi 570

milliard AQSH dollaridan 2024 yildan 2030 yilgacha har yili o‘rtacha 1550 milliard AQSH dollariga oshishi kerak.

Qayta tiklanadigan energiya quvvatini uch baravarga oshirish maqsadi hali ham kafolatlanmagan, chunki 2030 yilga qadar kerakli 11 teravatt (TW) ga yetish uchun qo‘sishimcha 7,2 teravatt qayta tiklanadigan energiya manbaalari asosida

ishlovchi stantsiyalar qurilishi kerak. Ammo, joriy prognozlar ko‘rsatishicha, aniq siyosat choralari ko‘rilmasa, bu maqsadga erishish imkon qiyin. Masalan, G20 davlatlari 2022 yilda 3 teravattdan kam bo‘lgan qayta tiklanadigan energiya quvvatini 2030 yilga qadar 9,4 teravattga oshirishlari kerak, bu esa jahoning 80% dan ortiq hissasini tashkil etadi[1].



1-rasm. Dunyo mintaqlaridagi elektr energiyasi ishlab chiqarish manbalari ulushi

Infratuzilma va tizim operatsiyalariga (masalan, elektr tarmoqlari, saklash) shiddatli sarmoya kiritish, siyosat va normativ hujjalarni qayta ko‘rib chiqish (masalan, elektr bozori tuzilishi va ruxsatnomalarni soddalashtirish), ta’milot to‘plamlarini mustahkamlash va zaruriy ko‘nikmalarni rivojlantirish uchun choralar, hamda sarmoyalarni sezilarli darajada oshirish - jumladan, xalqaro hamkorlik orqali ko‘maklangan davlat mablag‘lari - muhim ahamiyatga ega.

Qayta tiklanadigan energiya imkoniyatlari qaramay, rivojlanayotgan davlatlar sarmoyalari kiritishda ortda qolmoqda. Shunday bo‘lishiga qaramay energiya quvvatlarini yaratishga oid sarmoyalalar 2023 yilda rekord darajaga yetib, 2 trillion AQSH dollaridan ortdi, lekin rivojlanishda bo‘lgan bozorlar va

iqtisodiyotlar jahon sarmoyalarining faqat yarmini tashkil etadi. Dunyodagi qayta tiklanuvchi energiya manbarining 15% rivojlanayotgan 120 ta mamlakatlar hissasiga to‘g‘ri kelamoqda, jumladan, Sub-Saxara, Afrika kabia energiyaviy kam ta’minlangan, aholi soni tez o’sayotgan mintaqa bo‘lib, bu mintaqalar qayta tiklanadigan energiya sarmoyalarining 1,5% idan kamrog‘ini olmoqda[1].

Qayta tiklanuvchi energiya resurslariga qarama-qarshi ravishda organik yoqilg‘ilarga bog‘liklik davom etmoqda, jumladan, 2022 yilda qazib olinadigan yoqilg‘ilar 1,3 trillion AQSH dollari miqdoridagi subsidiyalar oldi, bu 2030 yilga qadar qayta tiklanadigan energiya ishlab chiqarish quvvatiga uch baravarga oshirish uchun kerak bo‘lgan yillik sarmoyaga tengdir. IRENAning 1,5°C ssenariyi uchun muhim jihat

shundan iboratki, qayta tiklanadigan energiya ishlatalishining oshishi qazib olinadigan yoqilg‘ilarga bo‘lgan bog‘lanishning kamayishi bilan o‘sib borishi kerak. Ikkala jihat ham kechikmoqda. G20 davlatlari 2022 yilda qazib olinadigan yoqilg‘ilarni qo‘llab-quvvatlash uchun rekordli 1,4 trillion AQSH dollari miqdorida davlat mablag‘larini sarf qildilar, bu COP28da qazib olinadigan yoqilg‘ilardan chiqishga bo‘lgan majburiyatga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ziddiyat hisoblanadi.

Natijalar

Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini ko‘paytirish xalqaro hamkorlikni kuchaytirish juda muhim bo‘ladi, chunki afrikaning aholisi o‘sib borayotgan mamlakatlariga moliyaviy oqimlarni ta’minlash va 2022 yildagiga nisbatan uch baravarga oshirish majburiyatini bajarish zarurdir. Sub-Saxara Afrika mamlakatlari dunyodagi eng yuqori moliyaviy xarajatlarga duch kelmoqda, bu esa xalqaro hamkorlikni kuchaytirish zarurligini ko‘rsatadi. Natijada ushbu davatlarda qayta tiklanuvchi energiya manbalari ortadi va aholining turmush tarzi yaxshilanadi.

Davlat moliyasini strategik tarzda foydalanish keng ko‘lamda sarmoya jalb qilish va barcha uchun ijtimoiy-iqtisodiy foya keltiradigan inklyuziv energiyaga o‘tishini amalga oshirish uchun muhimdir. Bu, rivojlanishdagi jarayonidagi mamlakatlarda qayta tiklanuvchi energiya turlariga o‘tishini samarali qo‘llab-quvvatlash uchun tarmoqlangan moliyaviy mexanizmlarda strukturaviy islohotlarni talab qiladi va natijada iqtisodiy o‘sish uchun yangi imkoniyatlar yaratiladi.

Hozirgi kungacha O‘zbekistonda asosan gidroelektrostansiyalar ishlab chiqarayotgan qayta tiklanuvchi energiya manbalari hissasiga mamlakatda ishlab chiqarilayotgan elektr energiyasi umumiy hajmining atigi 10 foiziga to‘g‘ri kelmoqda. Bu ko‘rsatgich mamlakatimizda nihoyatda katta salohiyat mavjud bo‘lishiga qaramasdan, quyosh va shamol singari qayta tiklanuvchi energiya manbalarining imkoniyatlaridan to‘liq

darajada foydalanilmayotganligini ko‘rsatmoqda.

Shu munosabat bilan, iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohaning energiya samaradorligini oshirish, energiya tejovchi texnologiyalar va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng joriy etish davlat siyosatining hozirgi bosqichdagi dolzarb yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolishi lozim. Aks holda mamlakatimiz iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Ilg‘or xorijiy tajribani inobatga olib, mavjud resurslarni va ishga solinmagan salohiyatni jalb etish orqali energiya samaradorligini oshirish, energiya tejovchi texnologiyalar va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng joriy etish, iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohaning energiya sarfi hajmini keskin kamaytirish borasidagi ishlarni kompleks tashkil etish, shuningdek, yoqilg‘i-energetika resurslaridan oqilona va samarali foydalanishni ta’minlash natijasida iqtisodiyotning lokamativi bo‘lgan energetika sohasida katta imkoniyatlar tug‘iladi.

O‘zbekiston Respublikasining, 21.05.2019 yildagi, O‘RQ-539-son «Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish to‘g‘risida» qonuni[2], O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 22 avgustdaggi PQ-4422-son «Iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohaning energiya samaradorligini oshirish, energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etish va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirishning tezkor chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarorini[3], O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022 - 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi farmoni[4], O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 8 iyuldaggi PQ-314-son «Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish uchun zarur yer maydonlarini ajratish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida»gi qarorini[5], O‘zbekiston Respublikasi

Prezidentining 2023 yil 16 fevraldaggi PQ-57-son «2023 yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» qarorini, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 5 oktabrdagi 568-son “Ahолining mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan ishlab chiqarilgan qayta tiklanuvchi energiya manbalarining qurilmalarini xarid qilish xarajatlarining bir qismini kompensatsiya qilish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lagan holda sotib olish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qarorini 2020-2030 yillarda O‘zbekiston Respublikasini elektr energiyasi bilan ta‘minlash konsepsiysi hamda ushbu yo‘nalishga tegishli barcha meyoriy xujjalarda keltirilgan maqsad va vazifalarni to‘liq bajarish hamda yuqorida muammolarni yechish orqali mamlakatimiz energetika tizimida katta miqdordagi zaxira quvvat manbalariga erishiladi. Bu jarayonlarda faza rotorli asinxron generatorlarni o‘zgaruvchan shamol energiyasidan elektr energiyasini olishda qo‘llash orqali yuqori samaradorlikka erishiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28-yanvardagi PF-

60-son «2022 - 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi farmonining 24-maqсадида, iqtisodiyotni elektr energiyasi bilan uzlusiz ta‘minlash hamda «Yashil iqtisodiyot» texnologiyalarini barcha sohalarga faol joriy etish, iqtisodiyotning energiya samaradorligini 20 foizga oshirish belgilangan. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish va qo‘llab-quvvatlash dasturini ishlab chiqish ko‘zda tutilgan. Bunda, kamida 8 ta shamol elektr stansiyalarni (SHES) qurish hisobiga 4 GVt qo‘srimcha quvvatlarni barpo etish, jumladan, 2023 yilda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Beruniy va Qorauzak tumanlari hamda Buxoro viloyati G‘ijduvon va Peshku tumanlarida 3 ta (1,1 GVt), 2024 yilda Navoiy viloyati Tomdi tumanida 1 ta (0,5 GVt), 2025-2026 yillarda Qoraqalpog‘iston Respublikasi va boshqa viloyatlarda kamida 4 ta (2,4 GVt) SHESni ishga tushirish ko‘zda tutilgan[6]. Bu loyihalarni amaliyatga joriy etish natijasida iste’molchilarni uzlusiz va sifatli energiya bilan ta‘minlash imkoniyatlari tug‘iladi.

2-jadval

O‘zbekiston Respublikasining 2030-yilgacha qayta tiklanuvchi energiya manbalarini yanada rivojlantirishning maqsadli parametrlari

T/r	Ko‘rsatkichlar nomi	Ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish proqnozları, MVt					Elektr energiyasi ishlab chiqarish ulushi, foiz	
		2019 y.	2020 y.	2021 y.	2022 y.	2023 — 2030 yy.	2018 y.	2030 y.
	Jami	1074,1	1926,8	2281,5	2801,6	18297,8	100	100
1.	An‘anaviy energetika	1 050	1807	1777	2259,4	10910,2	90	75
	Shu jumladan, quvvatlarni foydalanishdan chiqarish	-	1060	320	740	4280	-	-
2.	Qayta tiklanuvchi energiya manbaları	24,1	119,8	504,5	542,2	7387,6	10	25
	shundan:							
2.1.	Gidroenergetika	24,1	119,8	204,5	420,2	1487,6	10	11,2
2.2.	Quyosh energetikasi	-	-	300	320,2	4300	-	8,8
2.3.	Shamol energetikasi	-	-	-	100	1600	-	5


Yuqoridaq 2-jadvalda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 22 avgustdaggi PQ-4422-son qarorining 1-

ilovasida qayta tiklanuvchi energiya manbalarini yanada rivojlantirishning

2025-yil №1 -son

maqsadli parametrlari keltirilgan bo‘lib, bu parametrlar asosida energetika vazirligi o‘zining qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishning strategik

yo‘nalishini belgilaydi. Quyidagi 2-rasmda O‘zbekiston Respublikasining 2030-yilga borib qancha energiya ishlab chiqarish prognozlari keltirilgan.




2-rasm. Ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish prognozlari

Bu rejalarini amalga oshirish natijasida 2018-yilda mamlakatimiz energetika sohasida ishlab chiqarilgan jami quvvatning 90 % ni an'anaviy turdagiga ya’ni tabiy gaz va ko‘mir yoqish evaziga olingan bo‘lsa, 2030 yiga borib bu ko‘rsatkich, qayta tiklanuvchan energiya manbalarini ishga tushirishning evaziga 75 % ga tushirilishi rejalashtirilgan. 2030 yiga borib, qayta tiklanuvchan energiya manbalari ulushini 25 % ga yetkazish uchun, gidroenergetika ulushini 11 % ga,

quyosh energetikasi ulushini 8,8 % ga, shamol energetikasi ulushini 5 % ga oshirish ko‘zda tutilgan. Rejalashtirilgan ishlar amalga oshirilishi natijasida nafaqat energiyaga bo‘lgan talab balki atmosferaga chiqarilayotgan zararli gazlar miqdori ham sezilarli kamayadi.

3-rasmda O‘zbekiston Respublikasining 2030-yilga borib qancha qayta tiklanuvchan energiya ishlab chiqarish prognozlari keltirilgan.



3-rasm. Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan quvvat ishlab chiqarish prognozlari

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 16 fevraldaggi PQ-57-son “2023 yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etishni

jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori asosida joriy 2025-yilda 3-jadvalda keltirilgan ishlarni amalga oshirish rejalashtirilgan.

3-jadval

PQ-57-son qarorida rejalashtirilgan yangi qayta tiklanuvchi manbaalarining qurilish ishlari

T/r	Stansiya joylashuvi	Investorlar	Ishga tushirish muddati (yil, oy)	Loyiha qiymati (mln doll.)	Stansiya quvvati, (Mvt)		Yillik ishlab chiqarish hajmi (mln kVt/soat)	
					jamii	shundan, 2023 yilda ishga tushirilgan	jamii	shundan 2023-yilda
1.	Navoiy viloyati Tomdi tumani SHES	Masda (BAA)	1 navbati — 2023 yil dekabr; to‘liq — 2025 yil avgust	600	500	50	1 825	15
2.	Buxoro viloyati Peshku tumani SHES	ACWA Power (Saudiya Arabiston) (Saudiya Arabiston)	1 navbati — 2024 yil dekabr; to‘liq — 2025 yil may	600	500		1 800	
3.	Buxoro viloyati G‘ijduvon tumani SHES		1 navbati — 2024 yil dekabr; to‘liq — 2025 yil may	600	500		1 800	
4.	Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qorao‘zak tumani SHES		1 navbati — 2025 yil may; to‘liq — 2026 yil avgust	107	100		350	
JAMI (4 ta loyiha)				1907	1600	50	8 107	15

Xulosa

Dunyo mintaqalarida 2030 yilga qadar qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushini 3 barobarga oshirish evaziga global isish effektini kamaytirishga erishiladi. O‘zbekiston respublikasida 2030 yilga qadar qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushini jami ishlab chiqariladigan energiyaga nisbatan 25 foizga yetkazish evaziga yiliga qariyb 3 mlrd kub metr tabiiy gazni tejash imkoniyati yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- International Renewable Energy Agency (IRENA) tashkilotinig 2030 yilga qadar qayta tiklanadigan global energiya

quvvati maqsadli ko‘rsatkichlari. [Elektron resurs]. Targeted global renewable power capacity by 2030. <https://www.irena.org/Energy-Transition/Outlook/Tracking-progress#key-data>.

2. O‘zbekiston Respublikasining, 21.05.2019 yildagi, O‘RQ-539-son «Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish to‘g‘risida» Qonuni.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 22 avgustdaggi PQ-4422-son «Iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohaning energiya samaradorligini oshirish, energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etish va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini

2025-yil №1 -son

rivojlantirishning tezkor chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022 - 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi farmoni.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 8 iyuldagи PQ-314-son « Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish uchun zarur yer maydonlarini ajratish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘sishchalar kiritish to‘g‘risida»gi qarori.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 16 fevraldagи PQ-

57-son «2023 yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori.